

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 07/03.06.2023.
Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

G‘AFUROVA NOZIMAXON EL DAROVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG‘LIQQA BO‘LGAN HUQUQNI
TA‘MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

G‘afurova Nozimaxon Eldarovna

О‘zbekiston Respublikasida sog‘liqqa bo‘lgan huquqni ta‘minlashning xalqaro-huquqiy asoslari.....3

Гафурова Нозимахон Эльдаровна

Международно-правовые основы обеспечения права на здоровье в Республике Узбекистан.....31

Gafurova Nozimaxon Eldarovna

International legal basis of enforcing the right to health in the Republic of Uzbekistan.....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works66

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
DSc. 07/03.06.2023. Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

G'AFUROVA NOZIMAXON EL DAROVNA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG'LIQQA BO'LGAN HUQUQNI
TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.2.DSc/Yu210 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta‘lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tillaboev Mirzatilla Alisherovich
yuridik fanlar doktori, professor

Nug‘manov Nug‘man Abdullaevich
yuridik fanlar doktori, professor

Irkin Mirzaxidovich Umaroxunov
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/03.06.2023. Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 31 may kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1120-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 15 may kuni tarqatildi.
(2024 yil 6.-raqamli reestr bayonnomasi).

S.S.Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.N.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

Sh.X.Fayziev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertasiyasi (DSc) annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashuv jarayonida sog‘liqqa bo‘lgan huquq bir qator xalqaro hujjatlarda, birinchi navbatda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) Nizomi va direktivalari, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro Pakt va boshqa xalqaro shartnomalarda mustahkamlanib, insonning asosiy ajralmas ijtimoiy huquqlaridan biriga aylanmoqda. Ta‘kidlash lozimki, “2021 yilda dunyo bo‘ylab bolalar (0-14 yosh) OIV/OITS bilan yashovchi barcha odamlarning 4 foizini tashkil etdi, bu esa ushbu kasallik bilan bog‘liq barcha o‘limlarning 15 foizini tashkil qiladi. 2015 yildan 2021 yilgacha sil kasalligidan vafot etganlar sonini kamayishi atigi 5,9 foizini tashkil etdi. COVID-19 pandemiyasi 14,9 million qo‘shimcha o‘limga sabab bo‘ldi va 2020 – 2021 yillarda 336,8 millionta o‘limga olib keldi”¹. Ushbu vaziyat butun dunyo hamjamiyatiga nafaqat jahon sog‘liqni saqlash tizimlarining nomukammalligini, balki chuqur huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi va zudlik bilan hal etilishini talab qiluvchi masalalarni tadqiq etishda sog‘liqqa bo‘lgan huquq kategoriyasini chuqur o‘rganish va xalqaro hamkorlikning xalqaro-huquqiy asoslarini yanada kengaytirish va takomillashtirishni dolzarbligini ko‘rsatadi.

Jahonda xalqaro va milliy tibbiyot huquqini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy munozaralar, uning asosiy va konseptual asosi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda zamonaviy qiyinchiliklar va tahdidlar sharoitida sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, sog‘liqqa bo‘lgan huquq normalarining xususiyatlarini aniqlash, institusionalizatsiya, kodifikatsiya, bemorlarning huquqlari sohasida xalqaro normalarni ishlab chiqish olimlarning e‘tiborini tortmoqda. Yuzaga kelayotgan munosabatlar huquqiy tartibga solinishini talab qiladi, shundan kelib chikib sog‘liqqa bo‘lgan huquq sohasidagi xalqaro normalarini implementatsiyasi orqali me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish bo‘yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining oliy minbaridan, “Biz 2030 yilgacha aholini ichimlik suvi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta‘minlash ko‘lamini bir necha bor oshirishni belgilaganmiz”² – deb bejiz ta‘kidlamagan. Darhaqiqat, belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida xalqaro huquqdagi inson huquqlari va tibbiyot huquqi sohaslarini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash, bemorlarning huquqlarini rivojlantirish va institusionalizatsiya qilish dolzarb ahamiyatga ega. Xususan, huquq ustuvorligini ta‘minlash, sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini takomillashtirish, sog‘liqqa bo‘lgan huquqqa oid normalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish hamda inson ishtirokida davolashning yangi biomedisina usullaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish ushbu huquq sohasini

¹ World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals. © World Health Organization 2023. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240074323>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2023. <https://president.uz/uz/lists/view/6677>

o'rganishda ustuvor vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 5-maydagi PF-6221-son "Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi, 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi", 2023-yil 1-maydagi PQ-140-son "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini bajarishga shuningdek, ushbu yo'nalishdagi tegishli qonun hujjatlarini takomillashtirishga dissertasiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertasiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarga sharhi³.

Sog'liqqa bo'lgan huquqning ayrim jihatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida, xususan, The Centre of Medical Law and Ethics – King's College London (Buyuk Britaniya), University of Oxford, Faculty of law (Buyuk Britaniya), University of Aberdeen (Shotlandiya), Harvard University (AQSh), The Harvard School of Public Health (AQSh), Charles University (Chexiya), Victoria University of Wellington (Yangi Zelandiya), The Cambridge Centre for Law Department of International Law of National university of «Kyiv-Mohyla academy» (Ukraina), Rossiya xalqlar do'stligi universiteti (Rossiya), Birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti (Rossiya), Qirg'iziston davlat yuridik akademiyasi (Qirg'iziston) va boshqalar.

Sog'liqqa bo'lgan huquqning xalqaro huquqiy asoslarini takomillashtirish (The Centre of Medical Law and Ethics – King's College London, Buyuk Britaniya), global sog'liqqa bo'lgan huquq va bioetika masalalarini muvofiqlashtirish (University of Oxford, Faculty of law, Buyuk Britaniya), sog'liqqa bo'lgan huquqning xalqaro standartlarda aks ettirilishi (University of Aberdeen, Shotlandiya), sog'liqqa bo'lgan huquq va xalqaro tibbiyot huquqining asoslarini tizimlashtirish (Harvard University, AQSh), jamoat salomatligini ta'minlashdagi sog'liqqa bo'lgan huquqni o'rnini belgilash (The Harvard School of Public Health, AQSh), tibbiyot huquqida sog'liqni saqlash mexanizmini takomillashtirish (Charles University (Chexiya), sog'liqni saqlashdagi munosabatlarni xalqaro huquqiy

³ Dissertasiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.heuni.fi, www.tilburguniversity.edu, www.uu.nl, www.mpicc.de, www.law.ox.ac.uk, sydney.edu.au, www.isisc.org, www.mdx.ac.uk, law.depaul.edu, iso.bnu.edu.cn, www.ubc.ca, www.unn.ru, www.usla.ru, www.mgimo.ru, msal.ru, www.agprf.org, www.dipacademy.ru, vipe.fsin.su, www.uwed.uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

tartibga solish va qiyosiy-huquqiy tahlil qilish (Victoria University of Wellington, Yangi Zelandiya), tibbiyot huquqi va farmasevtika huquqida bioetik jihatlarni kuchaytirish (The Cambridge Centre for Law Department of International Law of National university of «Kyiv-Mohyla academy», Ukraina), sogʻliqqa boʻlgan huquqning xalqaro huquqiy tartibga solish (Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti, Rossiya), tibbiyot huquqi maktabini yaratish, tibbiyot huquqi va sogʻliqqa boʻlgan huquqning rivojlantirish (Birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti, Rossiya), tibbiyot huquqining sogʻliqni saqlashdagi ahamiyatini oʻrganish va xalqaro huquqiy standartlarni oʻrnini kuchaytirish (Qirgʻiziston davlat yuridik akademiyasi, Qirgʻiziston) va boshqa masalalar boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda dunyoda sogʻliqqa boʻlgan huquq doirasida qonunchilikni takomillashtirish boʻyicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda: sogʻliqqa boʻlgan huquqning xalqaro huquqiy asoslarini takomillashtirish; global sogʻliqqa boʻlgan huquq va bioetika masalalarini muvofiqlashtirish; sogʻliqqa boʻlgan huquqning xalqaro standartlarda aks ettirilishi; sogʻliqqa boʻlgan huquq va xalqaro tibbiyot huquqining asoslarini tizimlashtirish; jamoat salomatligini taʼminlashdagi sogʻliqqa boʻlgan huquqni oʻrnini belgilash; sogʻliqni saqlash mexanizmini takomillashtirish; tibbiyot huquqi va farmasevtika huquqida bioetik jihatlarni kuchaytirish.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Ushbu tadqiqot ishi bilan bogʻliq muammolarining xalqaro-huquqiy jihatlarni kompleks ravishda oʻrganish masalasi alohida tadqiqot obʼekti boʻlmagan. Sogʻliqqa boʻlgan huquq va tibbiyot huquqning ayrim masalalari maʼlum darajada mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida koʻrib chiqilgan: S.S. Gulyamov, I.R. Rustambekov, J.I. Babaev, A.X.Saidov, M.S. Abdullaxodjaeva, R.A. Azxodjaeva, Sh.I.Jalilov, B.I. Ismailov, B.N. Toshev, G. Yuldasheva, J.T. Askarov, R.A. Xonnazarov, M.S. Boltaev, J. Yuldashev, E. Xamroev, X.N. Safarova, F.U. Yusupova, V.A. Toshmatova va boshqalar.

Xorijiy mamlakatlarda sogʻliqqa boʻlgan huquqning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy jihatlari B. Tobes, Kristofer Kaczor, Fremgen, F. Bonni, Klaudiya Karr, Jorj J. Annas, Aurora Plomer, E. Sgreccia va V.Tambone, T.L. Beauchamp, J.F. Childress, W. Palm, H. Nys, D. Townend, D. Shaw, T. Clemens, H. Brand, Yu.D. Sergeev, A.A. Moxov, V.I. Akopov, O.A. Avdeev, E.N. Maslova, A.A. Roericht, G.B. Romanovskiy, E.A. Kapitonova, O.V. Romanovskaya, G.B. Romanovskiy, S.G. Stesenko, O.G. Dolkova, O.N. Kozodaeva, O.I. Kubar, S.I. Glushkova, L.F.Kurilo, T.N. Gaeva, L.V. Shileiko, A.E. Nikanorova – Kornienko, V.P. Salnikov, O.E. Starovoitova, A.E. Nikitin, Z. Serebrovskoy, T. Serebrovskoy, G. Samborskoy, R.A. Stefonchuk, G.I. Galanova, I.A.Ivannikov, N.A. Rubanovalarning ilmiy ishlarida oʻrganilgan.

Doktorlik dissertasiyalari darajasida Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi (MDH) mamlakatlari olimlari A.A. Belousova, D.F. Kirichenko, A.A. Rericht, D.G. Bartenev, G.V. Balashova, M.V. Biryukova, V.G. Borisova - Jharova, V.V. Vlasenkova, Puchkova, T.Y. Xolodova, V.P. Bushueva, L.V. Domnikova, A.B. Litovka, I.X. Malbaxova, V.M. Sokolov, O.A. Krasovskiy, V.V. Safonov, N.P. Silchenko, F.M. Aminova kabi olimlarning ishlarida tadqiqotlar olib borildi⁴.

⁴ Izoh: Olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida keltirilgan.

Yuqoridagi mualliflarning ilmiy ishlari xalqaro huquq fanlari doirasida sog'liqqa bo'lgan huquqni xalqaro-huquqiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazilmaganligini ko'rsatadi. Bugungi kunga qadar amaliy va nazariy nuqtai nazardan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda ushbu masalaning faqat ayrim jihatlari o'rganilgan. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashning xalqaro-huquqiy asoslari haligacha har tomonlama o'rganilmagan va alohida o'rganish predmeti sifatida ko'rib chiqilmagan, shunga ko'ra, ushbu mavzu bo'yicha monografik tadqiqot o'tkazilmaganligi bu sohadagi xalqaro shartnomalarning ro'yobga chiqarilishini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish ehtiyojini mavjudligini belgilaydi.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilayotgan oliy-ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tibbiyot huquqida amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi O'zbekiston Respublikasida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashning xalqaro huquqiy asoslarini hamda sog'liqqa bo'lgan huquq sohasidagi xalqaro va milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro huquqdagi inson huquqlarida sog'liqqa bo'lgan huquqning konseptual va institusional asoslarini o'rganish va aniqlash;

xalqaro huquqdagi inson huquqlari bo'yicha sog'liqqa bo'lgan huquqni insonning somatik huquqi sifatida shakllantirish va tasniflash xususiyatlarini aniqlash;

sog'liqqa bo'lgan huquqning xalqaro huquqiy asoslarini o'rganish va kodifikasiya qilish;

xalqaro huquqdagi inson huquqlari tizimida sog'liqqa bo'lgan huquqning asosiy tamoyillarini tahlil qilish;

sog'liqqa bo'lgan huquq va bemorlarning huquqlari o'rtasidagi mutanosibligini ochib berish;

BMT tizimida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashning universal mexanizmlari ko'rinishida inson salomatligiga bo'lgan huquqni ta'minlash sohasidagi xalqaro huquqiy mexanizmlarning roli va ahamiyatini tahlil qilish va ochib berish;

sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashda BMT shartnomaviy organlarining rolini belgilash;

bemorlarning sog'liqqa bo'lgan huquqlarini ta'minlashning hududiy mexanizmlari amaliyotini tahlil qilish va xususiyatlarini ochib berish;

inson sog'liqqa bo'lgan huquqlarini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajribani qiyosiy huquqiy tahlil qilish;

xalqaro va milliy huquqda bemorlarning huquqlarini ta'minlash konsepsiyasi asoslarini o'rganish va tahlil qilish va eng asosiy jihatlarni ochib berish;

bemorlarning huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi xalqaro hujjatlarni tahlil qilish va implementasiya mexanizmlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasida bemorlarning sog'liqqa bo'lgan huquqlarini ta'minlashning konstitusiyaviy va huquqiy kafolatlarini o'rganish va natijalari bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bemorning tibbiy xizmatlar iste'molchisi sifatidagi huquqlarini himoya qilish konsepsiyasini belgilash;

teletibbiyot sog'liqni saqlash tizimining zamonaviy raqamli echimi sifatida taqdim etilgan tibbiyotni raqamlashtirish sohasida universal xalqaro vositalarning rolini aniqlash;

teletibbiyotda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish huquqini o'rganish;

favqulodda vaziyatlarda dori vositalaridan teng foydalanishni ta'minlash vositasi sifatida dori vositalarini majburiy lisenziyalash zarurligini asoslash va qonunchilikka taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

sog'liqqa bo'lgan huquqi sohasidagi xalqaro huquq normalarini O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashning xalqaro huquqiy asoslarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq xalqaro-huquqiy va boshqa jamoat munosabatlari olingan.

Tadqiqotning predmetini xalqaro (xalqaro shartnomalar) va milliy qonunchilikdagi (O'zbekiston Respublikasining tibbiy huquq va inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchiligi) sog'liqqa bo'lgan huquq normalari va tamoyillari, sog'liqni saqlash sohasidagi xorijiy tajriba va bemorlarning huquqlarini ta'minlash, yuridik fanda, shuningdek, ushbu sohadagi xorijiy davlatlarning qonunchiligi va amaliyotida mavjud bo'lgan ilmiy-amaliy qarashlar, konseptual yondashuvlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada umumiy dialektik, tizimli yondashuv, muammoli-maqsadli, qiyosiy-huquqiy, maxsus-huquqiy, tarixiy-huquqiy, formal-yuridik tahlil, qiyosiy-tahliliy, mantiqiy va tarixiy-empirik kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sog'liqni saqlashning asosiy ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik determinantlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari doirasida davlatlarning javobgarligi va e'tiborini kuchaytirish, tengsizlik va diskriminasiya natijasida yuzaga keladigan, insonning sog'liqqa bo'lgan huquqlarini har tomonlama to'liq amalga oshirishga yo'l qo'ymaydigan bir qator to'siqlar, jumladan implementasiya mexanizmidagi kamchiliklar hamda dunyoda yuzaga kelgan yangi munosabatlarni tartibga solinmagani sababli mavjud bo'lgan huquqiy bo'shliqlar, moliyalashtirishdagi muammolar, turli favqulodda vaziyat yoki boshqa holatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

pandemiya davrida (COVID-19 va boshqalar) va boshqa favqulodda vaziyatlarda cheklovchi choralar ko'rilganida davlatlarning o'z majburiyatlarini samarali bajarishi, davlatlar xalqaro huquq doirasidagi xalqaro majburiyatlariga muvofiq inson huquqlari, insonning haqqoniy ma'lumot olish huquqini cheklamasdan, aksincha, davlat xizmatlarini sifatini oshirish, jumladan internet

tarmog'idan sog'liqni saqlash va telemedisina xizmatlaridan samarali foydalanishdagi asosiy vositasi va ma'lumot manbai sifatida foydalanish imkoniyatini yuqori darajada ta'minlash zarurati asoslangan hamda davlat majburiyati sifatida xalqaro xujjatda alohida belgilash taklifi berilgan;

sog'liqqa bo'lgan huquqning mazmuni va yuridik tabiati aniqlanib, "sog'liqqa bo'lgan huquq – insonning asosiy ajralmas ijtimoiy huquqi bo'lib, har bir shaxsga salomatlikning eng yuqori darajasiga ega bo'lishiga imkon beradigan, davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardan teng va samarali foydalanish huquqi bo'lib, mavjudlik, maqbullik, tenglik va adolat kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan somatik inson huquqlari kategoriyasidir", degan ma'nodagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

"bemor – bu sog'lig'i holatidan qat'i nazar, tibbiy va farmasevtika xizmatlarining barcha turlaridan foydalanish, tibbiy yordam olish, shuningdek, qonun doirasida biotibbiyot tajribalarida ishtirok etish uchun tibbiy muassasa yoki alohida tibbiyot xodimi bilan huquqiy va ijtimoiy munosabatlarga kirishgan har qanday shaxs", degan ma'nodagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

barcha dorivor vositalaridan teng foydalanish huquqini ta'minlash maqsadida dorivor vositalarni majburiy lisenziyalash mexanizmini joriy etish zarurati asoslangan;

sog'liqni saqlash sohasidagi sog'liqqa bo'lgan huquqning tartibga solish bo'yicha milliy qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlar, terminologik apparatlarning kamchiliklari aniqlanib, ularga muvofiq sog'liqni saqlash sohasidagi zamonaviy tahdidlar va voqeliklar davrida huquqiy tartibga solishni talab qiladigan konseptual yondashuvni shakllantirish asosida qonunchilikka taklif etilayotgan "salomatlikni belgilovchi determinantlar", "global sog'liqni saqlash", "epidemiya", "pandemiya", "fors-major holatlari", "aholining o'zini o'zi izolyasiya qilish rejimi", "karantin", "favqulodda vaziyat", "yuqori ogohlantirish rejimi", "dorivor vositalarini majburiy lisenziyalash" kabi atamalarni kiritish zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kompleks fundamental xalqaro-huquqiy tizimli tahlil asosida sog'liqqa bo'lgan huquq zamonaviy xalqaro huquqdagi inson huquqlarining alohida mustaqil kategoriyasi sifatida belgilangan va har tomonlama tahlil asosida xalqaro huquqiy kategoriya bo'lgan sog'liqqa bo'lgan huquqning mazmuni, genezisi, huquqiy tabiati, predmeti, ob'ektlari, sub'ektlari hamda huquqiy tizimdagi o'rni aniqlangan;

ilmiy tadqiqotning tizimli, tarkibiy va funksional o'rganish usullari asosida sog'liqqa bo'lgan huquq insonni ijtimoiy huquqlari turiga tegishli bo'lgan ajralmas huquq sifatida ta'riflangan va sog'liqqa bo'lgan huquqqa nisbatan eng kam darajada cheklovlar qo'llanilishi aniqlangan;

ijtimoiy-huquqiy hodisalarni bilishning dialektik usuli asosida sog'liqqa bo'lgan huquqning huquqiy mohiyatini o'rganish natijasida sog'liqqa bo'lgan huquq insonning somatik huquqlari toifasiga kiritilishi bo'yicha ilmiy konsepsiya ilk bora ilgari surilgan;

xalqaro tibbiyot huquqning konseptual asosi bo'lib xizmat qiladigan sog'liqqa bo'lgan huquq, huquqiy tartibga solishning kompleksli xususiyatiga ega ekanligi va

shuning uchun xalqaro huquqdagi inson huquqlarini alohida kategoriyasi sifatida uning normalari bilan tartibga solinishi belgilangan hamda uning uch o'lovli tabiati bilan ham ifodalanganligi aniqlangan:

1). aholi salomatligini belgilovchi omillar, ya'ni sog'lom turmush tarzini olib borishga yordam beradigan keng ko'lamlı davlat tomonidan yaratiladigan shart-sharoitlar,

2). inson erkinliklari,

3). xalqaro va milliy tibbiyot qonunlari bilan tartibga solinadigan muayyan huquqlardan foydalanish imkoniyati; mamlakatda maxsus vaziyat (fors-major, epidemiya, pandemiya va boshqalar) paydo bo'lishi munosabati bilan hukumat tomonidan cheklov choralari – insonning muayyan konstitusiyaviy huquqlaridan voz kechish haqiqatan ham zarur, mutanosib va vaqtinchalik, eng muhimi – inson hayoti va qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslangan bo'lishi kerakligi aniqlanganligi natijasida cheklov choralarni joriy etishda adolat va mutanosiblik tamoyilini qo'llashning konseptual asoslari ilmiy asoslangan va ishlab chiqilgan;

sog'liqqa bo'lgan huquq va bemor huquqlarining o'zaro bog'liqligi va muvofiqligi aniqlangan, bu erda sog'liqqa bo'lgan huquqning maqsad va vazifalari global xarakterga ega va bemorlarning huquqlari individual xarakterga egaligi, shu bilan birga, sog'liqqa bo'lgan huquqning asosiy sub'ektlaridan biri – bu aholi bo'lsa, sog'liqqa bo'lgan huquqdan farqli o'laroq, bemor huquqlarini normalari shaxsga qaratilganligi aniqlangan, ya'ni, agar sog'liqqa bo'lgan huquq xalqaro va milliy tibbiy huquqning aloqasi va konseptual asosi bo'lsa, bemor huquqlari sog'liqqa bo'lgan huquqning asosiy instituti ekanligi aniqlangan;

tadqiqot natijasida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashda universal xalqaro tashkilotlarning funksiyalari namoyon bo'lishining to'qqizta yo'nalishi aniqlangan va tizimlashtirilgan hamda kompleksli tahlil natijasida sog'liqqa bo'lgan huquq sohasidagi xalqaro huquqiy shartnomalarni ishtirokchilari doirasi va tartibga solish predmeti bo'yicha tasniflash amalga oshirilgan (2-ilovaga muvofiq);

Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari tomonidan individual xabarlarni ko'rib chiqish amaliyotini o'rganayotganda, sog'liqqa bo'lgan huquqni buzilishi to'g'risidagi xabarlar nafaqat Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 12-moddasi buzilganligi sababli, balki inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro shartnomalarning ham buzilishi sog'liqqa bo'lgan huquqning buzilishiga olib kelishi mumkinligi aniqlangan (qiynoqlar, mahbuslarni (shu jumladan bemorlarni) noo'rin g'ayriinsoniy sharoitlarda saqlash, dorivor vositalaridan teng foydalanish huquqining buzilishi, tibbiy xizmatlardan teng foydalanish bo'yicha kamsitish, harbiy asirlar bilan tibbiy tajribalar o'tkazish, reproduktiv huquqlarning buzilishi va boshqalar);

xalqaro shartnomalar, shuningdek xalqaro sud va kvazi-sud organlarining talqinlari biz uchun majburiy normalarni amalga oshirishning milliy mexanizmi, birinchidan, milliy huquqiy tizimiga umumiy resepsiya orqali to'g'ridan-to'g'ri inkorporasiya shaklidagi implementasiya qilish va, ikkinchidan, sudlar va shartnomaviy organlarining tavsiyalariga, xalqaro shartnomalar normalarining

talqinlariga va boshqa xalqaro manbalarga murojaat qilish amaliyotini qo'llash eng samarali mexanizm sifatida asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, etakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan holda amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif va tavsiyalar, ilmiy-nazariy xulosalar ilmfan rivojiga, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, sog'liqni saqlash, inson huquqlari, bemor huquqlarining tegishli normalarini izohlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro huquq, xalqaro tibbiyot huquqi, milliy tibbiyot huquqi, xalqaro huquqidagi inson huquqlarida sog'liqqa bo'lgan huquqni institusionalizatsiya qilish kabi fan va doktrinani boyitish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularni amaliyotga tatbiq etilishi sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish orqali aholiga sog'liqqa bo'lgan huquq, tibbiy xizmatlardan foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

sog'liqni saqlashning asosiy ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik determinantlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari doirasida davlatlarning javobgarligi va e'tiborini kuchaytirish, tengsizlik va diskriminatsiya natijasida yuzaga keladigan, insonning sog'liqqa bo'lgan huquqlarini har tomonlama to'liq amalga oshirishga yo'l qo'ymaydigan bir qator to'siqlar, jumladan implementatsiya mexanizmidagi kamchiliklar hamda dunyoda yuzaga kelgan yangi munosabatlarni tartibga solinmagani sababli mavjud bo'lgan huquqiy bo'shliqlar, moliyalashtirishdagi muammolar, turli favqulodda vaziyat yoki boshqa xolatlarda yuzaga keladigan muammolarni engib o'tish zarurati bo'yicha ishlab chiqilgan xalqaro va milliy huquqiy asoslari bo'yicha taklifdan BMTning Inson huquqlari Kengashi tomonidan 2023-yil 3-aprelda qabul qilingan «Ruhiy salomatlik va inson huquqlari» A/HRC/RES/52/12 rezolyusiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi Doimiy vakolatxonasining 2023-yil 30-apreldagi 15/12229/09-30-son dalolatnomasi). Ushbu taklif sog'liqqa bo'lgan huquqni amalga oshirishda davlatlarning javobgarligini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar sifatida xizmat qilgan;

pandemiya davrida (COVID-19 va boshqalar) va boshqa favqulodda vaziyatlarda cheklovchi choralar ko'rilganida davlatlarning o'z majburiyatlarini samarali bajarishi, davlatlar xalqaro huquq doirasidagi xalqaro majburiyatlariga muvofiq inson huquqlari, insonning haqqoniy ma'lumot olish huquqini cheklamasdan, aksincha, davlat xizmatlarini sifatini oshirish, jumladan internet tarmog'idan sog'liqni saqlash va telemedisina xizmatlaridan samarali foydalanishdagi asosiy vositasi va ma'lumot manbai sifatida foydalanish

imkoniyatini yuqori darajada ta'minlash zarurati asoslangan hamda davlat majburiyati sifatida xalqaro xujjatda alohida belgilash bo'yicha taklifdan BMTning Inson huquqlari Kengashi tomonidan 2023-yil 3-aprelda qabul qilingan «Ruiy salomatlik va inson huquqlari» A/HRC/RES/52/12 rezolyusiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi Doimiy vakolatxonasining 2023-yil 30-apreldagi 15/12229/09-30-son dalolatnomasi). Ushbu taklif davlatlar tomonidan pandemiya va boshqa favqulodda vaziyatlarda cheklov choralarini joriy etishda o'z majburiyatlarini samarali bajarish uchun tavsiya sifatida xizmat qilgan;

sog'liqqa bo'lgan huquqning mazmuni va yuridik tabiati asosida ishlab chiqilgan: "sog'liqqa bo'lgan huquq – insonning asosiy ajralmas ijtimoiy huquqi bo'lib, har bir shaxsga salomatliking eng yuqori darajasiga ega bo'lishiga imkon beradigan, davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardan teng va samarali foydalanish huquqi bo'lib, mavjudlik, maqbullik, tenglik va adolat kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan somatik inson huquqlari kategoriyasidir", degan ma'nodagi mualliflik ta'rifi bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasining 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 22-fevraldagi 08-04710-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning kiritilishi atamalar bazasini boyitish va sog'liqqa bo'lgan huquqning mohiyatini to'g'ri anglashga xizmat qilgan. Shuningdek, mazkur konsepsiyaning milliy qonunchilikka kiritilishi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt (12-modda) va boshqa inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalar bo'yicha xalqaro majburiyatlarni samarali bajarishga xizmat qilgan;

"bemor – bu sog'lig'i holatidan qat'i nazar, tibbiy va farmasevtika xizmatlarining barcha turlaridan foydalanish, tibbiy yordam olish, shuningdek, qonun doirasida biotibbiyot tajribalarida ishtirok etish uchun tibbiy muassasa yoki alohida tibbiyot xodimi bilan huquqiy va ijtimoiy munosabatlarga kirishgan har qanday shaxs" degan ma'nodagi mualliflik ta'rifi bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasining 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 22-fevraldagi 08-04710-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning kiritilishi atamalar bazasini boyitish va bemor huquqining mohiyatini to'g'ri tushunishga xizmat qilgan;

barcha dorivor vositalaridan teng foydalanish huquqini ta'minlashga qaratilgan dorivor vositalarni majburiy lisenziyalash mexanizmini joriy etish bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasining 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 22-fevraldagi 08-04710-son dalolatnomasi). Ushbu taklif mamlakatda favqulodda vaziyat yoki o'ta zarurat tug'ilganda barcha uchun dorivor vositalaridan teng foydalanish huquqini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar sifatida hamda Jahon Savdo Tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lishi jarayonidagi bajarishi lozim bo'lgan shartlarini amalga oshirishga xizmat qilgan;

tadqiqot natijasida sog‘liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikdagi aniqlangan huquqiy bo‘shliqlar, terminologik apparatlarning kamchiliklari va ularga muvofiq sog‘liqni saqlash sohasidagi zamonaviy tahdidlar va voqeliklar davrida huquqiy tartibga solishni talab qiladigan konseptual yondashuvni shakllantirish zarurati asosida ishlab chiqilgan “salomatlikni belgilovchi determinantlar”, “global sog‘liqni saqlash”, “epidemiya”, “pandemiya”, “fors-major holatlari”, “aholining o‘zini o‘zi izolyasiya qilish rejimi”, “karantin”, “favqulodda vaziyat”, “yuqori ogohlantirish rejimi”, “dorivor vositalarini majburiy lisenziyalash” kabi mualliflik ta‘riflarni kiritish bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasining 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yil 22-fevraldagi 08-04710-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning kiritilishi sog‘liqqa bo‘lgan huquqning huquqiy tabiati va mazmun-mohiyatini anglash, atamalar bazasini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 30 ta konferensiyalarda, ulardan 20 tasi xalqaro, 10 tasi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, 5 ta xorijiy maqola, 9 ta xalqaro anjumanlar to‘plamlarida, 4 ta respublika jurnallarida ilmiy maqolalar va 2 ta respublika konferensiya tezislarini chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 226 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotasiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida **“Xalqaro huquqdagi inson huquqlarida sog‘liqqa bo‘lgan huquqning kontseptual va institutsional asoslari”** deb nomlangan xalqaro huquqidagi inson huquqlarida sog‘liqqa bo‘lgan huquqning insonning somatik huquqi sifatida shakllanishi va toifalanishining xususiyatlari tubdan o‘rganildi. Insonning sog‘liqqa bo‘lgan huquqining xalqaro-huquqiy asoslari har tomonlama o‘rganildi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq tizimidagi

sog'liqqa bo'lgan huquqning asosiy tamoyillari tizimli tahlil qilindi. Shundan kelib chiqib, 1-bob uchun nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

Birinchi bobda xalqaro huquqdagi inson huquqlarida sog'liqqa bo'lgan huquqning kontseptual va institutsional asoslari sog'liqqa bo'lgan huquqni shakllantirish xususiyatlari har tomonlama tahlil qilingan. Dissertatsiya inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq tizimida sog'liqqa bo'lgan huquqni mustaqil zamonaviy kategoriya sifatida belgilaydi. Tadqiqotda sog'liqqa bo'lgan huquqning huquqiy mohiyati o'rganildi va uning xususiyatlarini hisobga olgan holda, u tibbiyot huquqi sohasining ham milliy, ham xalqaro miqyosda shakllanishi bilan bevosita bog'liqligi va uning institutsional asosi ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyada insonning shaxsiy huquqlari kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda, muallifning inson huquqlariga nisbatan nazariy yondashuvi taqdim etilgan bo'lib, u sog'liqqa bo'lgan huquq bo'yicha umumiy nazariy va amaliy qarashlar doirasida mutlaqo yangi manzara va yangi yondashuvlarni shakllantiradi.

Bobda sog'liqqa bo'lgan huquqning huquq tizimidagi o'rnini aniqlashga harakat qilindi. Ushbu ishda salomatlik huquqi xalqaro tibbiy huquqning asosiy instituti sifatida taqdim etilgan.

Tadqiqotlar natijasida ilk bora salomatlik huquqi insonning somatik huquqlari toifasiga kiritish fikri ilgari surilgan va muallifning ta'rifi berilgan.

Shuningdek, ishda dunyoda inson huquqlari rivojlanishining 5 asosiy bosqichi tahlil qilinadi va yoritiladi.

Shuningdek, har tomonlama tahlil qilish natijasida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy shartnomalarni ishtirokchilar doirasi va tartibga solish predmeti bo'yicha 2-ilovaga muvofiq tasniflash amalga oshirildi.

Shuningdek, bobda sog'liqqa bo'lgan huquq tamoyillari ko'rib chiqildi va takomillashtirildi. Ishda inson huquqlariga, xususan, sog'liqqa bo'lgan huquqqa bo'lgan cheklovlarni tartibga solishni nazarda tutuvchi adolat va mutanosiblik tamoyilini tahlil qilishga asosiy e'tibor qaratilgan. Tadqiqot asosida ishda O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasining 5-moddasiga qo'shimcha tamoyillar kiritish taklif etilgan.

Shuningdek, dissertatsiyada sog'liqqa bo'lgan huquq va bemorlarning huquqlarining huquqiy mohiyatini tahlil qilish asosida sog'liqqa bo'lgan huquq va bemorlarning huquqlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga harakat qilindi.

Tadqiqot ishida sog'liqqa bo'lgan huquq tibbiyot huquqning asosiy kontseptual asosi sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birga, keng qamrovli huquq bo'lgan sog'liqqa bo'lgan huquq tibbiyot huquqi doirasidan tashqariga chiqadigan munosabatlarning yanada keng doirasiga egaligi aniqlangan. Sog'liqqa bo'lgan huquqning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan tibbiyot huquqning o'zi esa bemorlarning huquqlarini birlashtiradigan institutlardan iboratligi aniqlandi. Shunga ko'ra, institutsionalizatsiya bir muncha boshqacha tus olgani sababli, taqiqotda sog'liqqa bo'lgan huquq va bemorlarning huquqlarini ajratib, ularning munosabatlarini aniqlashga qaror qilindi.

Bemorlar huquqlarining huquqiy mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi ta'rif berildi: "bemor – sog'lig'idan qat'i nazar, qonun hujjatlari doirasida tibbiy yordam

olish, (shu jumlada xabardor qilingan rozilik asosida biotibbiyot tajribalarida ishtirok etish), tibbiy va farmatsevtika xizmatlarining barcha turlaridan foydalanish uchun tibbiy muassasa yoki yakka tartibdagi tibbiyot xodimi bilan huquqiy va ijtimoiy munosabatlarga kirishgan har qanday jismoniy shaxs”. Bundan kelib chiqadiki, bemorlarning huquqlari qat’iy individual xususiyatga ega.

Shuningdek, bugungi kunda bemorlarning huquqlari to’g’risidagi doktrinasi allaqachon shakllanganligi aniqlangan bo’lib, u faqat bemorga yo’naltirilgan bemorlar huquqlari doktrinasiga muvofiq inson huquqlarini himoya qilish sohasida ayrim asosiy cheklovlarni qo’yish imkonini beradi.

Sog’liqqa bo’lgan huquqning huquqiy mohiyatini fundamental tahlil qilish, salomatlik huquqi normalarining xalqaro tashkilotlar tomonidan talqin qilinishi xalqaro inson huquqlari huquqida sog’liqqa bo’lgan huquq rag’batlantirishdagi bo’shliqlarni bartaraf etuvchi vosita ekanligini aniqlash imkonini berdi. Individual (bemorlar huquqlari va boshqalar) ham, jamoat salomatligini ham, inson huquqlari tushunchalarini va xalqaro shartnomalarni va inson huquqlari milliy qonunlarini qo’llash, masalan, bemorlarni parvarish qilish muassasalarida sog’liqni saqlash xizmatlarini ko’rsatishning tor iste’molchi nuqtai nazaridan uzoqlashishga undaydi.

Bemorlar huquqlarini himoya qilish, jumladan, huquqiy tartibga solish sohasidagi mavjud muammolarni tanqidiy tahlil qilish va aniqlash natijasida bemorlar huquqlarini himoya qilish doirasidagi O’zbekiston Respublikasi sud amaliyoti o’rganildi. O’rganish davomida O’zbekiston Respublikasida bemorlar huquqlarining buzilishi bilan bog’liq yigirmadan ortiq jinoyat ishlari bo’yicha sud ishlari o’rganilib, eng ko’p murojaatlar quyidagi moddalar bo’yicha kuzatilgani ma’lum bo’ldi: 116 – Kasb yuzasidan o’z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik, 117 – Xavf ostida qoldirish, 167 - O’zlashtirish yoki rastrata yo’li bilan talon-toroj qilish, 168 - Firibgarlik, 207 - Mansabga sovuqqonlik bilan qarash, 209 - Mansab soxtakorligi, 210 - Pora olish. Bundan tashqari, ularning 90 foizi 116-moddaga to’g’ri keladi. Shuningdek, “Fuqarolar sog’lig’ini saqlash to’g’risida”gi qonun hamda O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirining bir qator farmoyishlari talablari buzilgan.

Shunday qilib, sog’liqqa bo’lgan huquq ta’minlashdagi, ayniqsa, bemorlarning huquqlarining buzilishidagi eng asosiy muammolardan biri – sog’liqqa bo’lgan huquq milliy qonunchilikda etarli darajada tartibga solinmaganligi, nazariy asos va kontseptual yondoshuvlarni mavjud emas deb xulosa qilindi. Shunga ko’ra, mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan takliflar sog’liqqa bo’lgan huquqni rivojlantirish orqali ma’lum darajada mazkur tizimli va qonunchilik muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Insonni sog’liqqa bo’lgan huquqini ta’minlash sohasidagi xalqaro huquqiy mexanizmlar va xorijiy tajriba”** mavzusida BMT tizimida sog’liqqa bo’lgan huquqni ta’minlashning universal mexanizmlari har tomonlama o’rganilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnoma organlarining sog’liqqa bo’lgan huquqni ta’minlashdagi roli tubdan tahlil qilindi. Bemorlarning sog’liqqa bo’lgan huquqlarini ta’minlashning hududiy mexanizmlari amaliyotining qiyosiy huquqiy tahlili o’tkazildi. Insonni sog’liqqa

bo'lgan huquqlarini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajriba tanqidiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida 2-bobda xulosalar va takliflar taklif etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti sog'liqqa bo'lgan huquqlari bo'yicha xalqaro siyosatni shakllantiruvchi universal mexanizm sifatida aniqlandi.

Tadqiqot natijasida ikkinchi bob doirasida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashda universal xalqaro tashkilotlarning funktsiyalari namoyon bo'lishining to'qqizta yo'nalishi aniqlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari faoliyati amaliyotini tahlil qilish natijasida xalqaro huquqda inson huquqlari normalari manbalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan talqin materiallarining amaliy ahamiyati aniqlandi.

Shunday qilib, ushbu bobda Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari tomonidan individual xabarlarini ko'rib chiqish amaliyoti o'rganilib, sog'liqqa bo'lgan huquqni buzish to'g'risidagi xabarlar nafaqat Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 12-moddasi buzilishi bilan bog'liq holda, balki inson huquqlari bo'yicha boshqa yirik xalqaro shartnomalardagi boshqa huquqlarni buzilishiga, ularning buzilishi esa natijada sog'liqqa bo'lgan huquqning buzilishiga olib kelishi aniqlandi (qiynoqqa solish, mahbuslarni (shu jumladan bemorlarni) g'ayriinsoniy sharoitlarda saqlash, dori vositalaridan teng foydalanish huquqining buzilishi, tibbiy xizmatlardan teng foydalanish bo'yicha kamsitish, harbiy asirlar bilan tibbiy tajribalar o'tkazish, reproduktiv huquqlarning buzilishi va boshqalar).

Davlatlarning milliy qonunchiligini xalqaro normalar va standartlar bilan yanada uyg'unlashtirish, shuningdek xalqaro majburiyatlarni samarali bajarish maqsadida BMTning shartnomaviy organlarining milliy sudlar va qonun chiqaruvchi organlar tomonidan umumiy sharhlari, yakuniy mulohazalari, tavsiyalari va talqinlari kabi muhim xalqaro manbalarga murojaat qilishning ahamiyati ochib berildi.

Xalqaro shartnomalarni normalarni va Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlarining talqinlarini qo'llash va amalga oshirishning milliy mexanizmi sudlar shartnomaviy organlarining fikrlariga murojaat qiladigan milliy huquq tizimiga xalqaro shartnomalarni umumiy retseptsiya shaklida to'g'ridan-to'g'ri inkorporatsiya qilishni nazarda tutadigan holatlarda eng samaraliligi isbotlandi. Faqatgina transformatsion qo'shilish mexanizmi bilan cheklangan milliy implementatsiya amaliyotda ma'lum darajada me'yorlarni qo'llashda to'siqlar paydo bo'lishi aniqlangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, xalqaro sud va kvazi-sud organlari tomonidan salomatlik huquqi bo'yicha xalqaro-huquqiy normalarni xalqaro-huquqiy talqin qilish har qanday boshqa talqinlarga nisbatan katta ustunlikka ega, shuningdek, ushbu talqinlarga ikkinlamchi huquq manbalari sifatida katta ahamiyat berilishi kerak, chunki ular ushbu sohada xalqaro standartlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi milliy sudlari qaror qabul qilishda O'zbekiston uchun imperativ bo'lgan xalqaro shartnomalar normalari va boshqa xalqaro manbalarning talqinlariga murojaat qilishlari maqsadga muvofiqligi isbotlandi.

Ishda Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudining amaliyoti tahlil qilingan va Inson huquqlari bo'yicha Evropa konventsiyasida sog'liqqa bo'lgan huquq bo'yicha alohida norma nazarda tutilmagan bo'lsa-da, sud sog'liqqa bo'lgan huquqning muhim jihatlari bo'lgan asosiy huquqlarni ifodalovchi ba'zi normalarni buzish bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqqanida, ular jiddiy sog'liq, jismoniy va insonning psixologik yaxlitligini buzilishiga oidligi aniqlandi (yashash huquqi, tibbiy xizmatlardan foydalanish, mahbuslarga tegishli tibbiy xizmatdan foydalanish, evtanaziya va boshqalar).

Afrika Xartiyasining asosiy xususiyati shundaki, u qit'aning siyosiy, iqtisodiy va etnik voqeligiga, shuningdek, ushbu xalqlarning huquqlari va majburiyatlarining o'ziga xos kontseptsiyasini tavsiflovchi va shakllantiradigan Afrikaning tarixiy an'analari va qadriyatlariga asoslanganligi sababli, inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmlar tomonidan ko'rib chiqilgan shikoyatlar o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi.

Afrika inson huquqlari bo'yicha komissiyasiga kelib tushgan shikoyatlar jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yaxshi darajasi (Afrika xartiyasining 16-moddasi 1-qismi) va nogironlarning maxsus choralar ko'rish huquqi (Afrika xartiyasining 18-moddasi 4-qismi), shuningdek, majburiy sterilizatsiya, shaxsiy daxlsizligi va g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan ozod bo'lish huquqlarini buzgan holda, ularning roziligisiz OITS test o'tkazish, harbiy xizmatchilarga ularning xabardor qilmasdan roziligisiz tibbiy tajribalar o'tkazish va diskriminatsiya masalalari bo'yicha huquqni buzganlik to'g'risida da'vo qilishlari aniqlandi.

Amerikalararo inson huquqlari tizimining huquqiy asosi bo'lgan Inson huquqlari bo'yicha Amerika konventsiyasining «sog'liqqa bo'lgan huquq»ni aniq tartibga soluvchi maxsus norma mavjud emasligi, ammo sudlar amaliyotida qaror qabul qilishda ushbu huquq qo'llanilishi, jumladan, bemorning xabardor qilmasdan roziligisiz ayollarni majburiy sterilizatsiya va abort qilish, tibbiy xizmatdan foydalanishda jinsiy kamsitish, ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga tibbiy yordam berish va davolash, OITS bilan kasallangan odamlarning salomatlik huquqlari va boshqa sog'liqqa bo'lgan huquqning masalalari bo'yicha huquqni buzganlik to'g'risida da'vo qilishlari aniqlandi.

Shunday qilib, har bir mintaqaviy mexanizm tomonidan ko'rib chiqadigan sog'liqqa bo'lgan huquq bo'yicha shikoyatlar va individual xabarlarini mazmuni har bir qit'aning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq va farqlidir. Bundan tashqari, bugungi kunda dolzarblik va ustuvorlikning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, xalqaro sudlarning qarorlarida sog'liqqa bo'lgan huquq siyosiy va fuqarolik huquqlari bilan bir qatorda o'rin egallagan, bu esa keng munozaralar maydonini va salomatlik huquqni yanada rivojlantirish istiqbollari yaratadi degan xulosaga kelish mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Sog‘liqqa bo‘lgan huquqning asosiy instituti sifatida bemorlarning huquqlarini ta‘minlash sohasidagi xalqaro huquqiy baza va milliy qonunchilik”** deb nomlangan bo‘lib, xalqaro va milliy qonunchilikda bemorlarning huquqlarini ta‘minlash konsepsiyasining asoslari har tomonlama o‘rganilgan. Bemorlar huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar o‘rganilib, tanqidiy tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasida bemorlarning sog‘liqqa bo‘lgan huquqlarini ta‘minlashning konstitutsiyaviy va huquqiy kafolatlari muhokama qilindi. Bob natijalariga ko‘ra xulosalar va takliflar tuzildi.

Ikkinchi Jahon urushi natijasida tuzilgan Nyurnberg jarayonini bemorlarning huquqlari kontsepsiyasini ishlab chiqishda va tibbiyot xodimining faoliyatini huquqiy va axloqiy tartibga solishni rivojlantirishga turtki bo‘lgani isbotlandi.

Bemorlarning huquqlari bo‘yicha xalqaro kontsepsiyani shakllantirishning tarixiy jarayoni Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan keyin sog‘liqqa bo‘lgan huquq xalqaro huquqning alohida toifasiga aylanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Nyurnberg jarayonidan so‘ng, shifokor majburiyatlari va bioetik me‘yorlarni aks ettiruvchi bemorlarning huquqlari bo‘yicha birinchi qabul qilingan xalqaro hujjat – 1947 yildagi Nyurnberg kodeksi insonlarda tibbiy va biologik eksperimentlarni o‘tkazish uchun axloqiy-huquqiy qoidalar to‘plami ekanligi aniqlandi, aynan ushbu kodeks qabul qilinganidan so‘ng bemor huquqlari va bioetika tushunchasi faol rivojlana boshladi, shu nuqtai nazardan bemorlarning huquqlari kontsepsiyasining xalqaro huquqiy asosini tashkil etuvchi ko‘plab xalqaro hujjatlar qabul qilindi.

Nyurnberg kodeksi va Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganidan so‘ng bemor huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslari jadal rivojlana boshladi, shundan so‘ng dunyoning barcha mamlakatlarida inson huquqlari va erkinliklari rolining o‘shish tendentsiyasi kuzatildi va shu bilan birga, salomatlik huquqi kontseptual global sog‘liqni saqlashning asosi sifatida mustahkamlana boshladi.

Bemorning huquqlari kontsepsiyasining mohiyati, bemorlar va tibbiyot mutaxassisleri huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimidagi shifokor va bemor o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy axloqiy va huquqiy tamoyillarini umumiy ma‘noda ham, ma‘lum bir bemorga nisbatan ham aniq belgilashdir.

Dunyoda bemor huquqlarini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasining turlari aniqlandi.

Agar bemorning huquqlari fuqarolarning tibbiy yordam yoki xizmat ko‘rsatishga murojaatida yuzaga keladigan huquqiy va ijtimoiy munosabatlar majmuini o‘z ichiga olsa, sog‘liqqa bo‘lgan huquq esa – bu insonning davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardan teng foydalanish huquqiga ega bo‘lgan asosiy ajralmas ko‘p spektrli kompleks huquqidir, bu har bir kishiga mavjudlik, maqbullik, tenglik va adolat kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan eng yuqori salomatlik darajasiga ega bo‘lishiga imkon beradi, bu nafaqat o‘z vaqtida va tegishli tibbiy

yordamni, balki asosiy sog‘liqni saqlash holatini va ma‘lum erkinliklarni belgilovchi omillarligi aniqlandi.

Bemorlarning huquqlarining zamonaviy kontsepsiyasida ularni to‘rt yo‘nalishda guruhlash mumkinligi aniqlandi:

1). tibbiy muassasaga murojaat qilishda yuzaga keladigan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan bemorlarning asosiy individual huquqlari. Masalan, jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga ega bo‘lish huquqi; malakali tibbiy yordam olish huquqi; xabardor qilingan rozilik huquqi; shaxsiy hayot va qadr-qimmat uchun; tibbiy kartasidagi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lish va boshqalar.

2) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan bemorlarning ijtimoiy huquqlari, masalan, tibbiy xizmatdan foydalanish, shu jumladan bepul; kompensatsiya; teng muomala; sug‘urta huquqi va boshqalar.

3) bemorlarning iste‘molchilar sifatida huquqlari, ular birinchi navbatda tibbiy yordam ko‘rsatuvchi provayderni tanlash huquqini o‘z ichiga oladi; ikkinchi fikrga bo‘lgan huquq uchun; xavfsiz va o‘z vaqtida davolanish uchun (bemorlarning xavfsizligi va tibbiy yordam sifati); sifatli dori-darmonlardan foydalanish huquqi.

4) davlat ushbu huquq bo‘yicha xalqaro majburiyatlarini buzgan taqdirda xalqaro sud va kvazi-sud instansiyalariga individual murojaat qilish huquqini o‘z ichiga olgan xalqaro inson huquqlari.

Bemorlarning huquqlari bo‘yicha xalqaro asoslarni o‘rganish, bemorlarning huquqlari bo‘yicha mintaqaviy vositalarning aksariyati universal vositalardan tashqari, inson huquqlari bo‘yicha Evropa mintaqaviy mexanizmlari doirasida ko‘proq namoyish etilgan degan xulosaga kelishimizga imkon berdi.

Bemorlarning huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish sohasidagi katta huquqiy bo‘shliqlar koronavirus (COVID-19) pandemiyasi davrida ham kuzatildi, bu barcha davlatlar uchun favqulodda muammolarni keltirib chiqardi va uning muammolari insoniyat uchun eng xavfli bo‘lib chiqdi. Bularning barchasi deyarli barcha davlatlarda, ayniqsa inson huquqlarini cheklash masalalarida bemorlarning huquqlarini buzilishiga olib keldi.

Pandemiya davrida sog‘liqni saqlashni har tomonlama tartibga soluvchi biron bir davlatda maxsus huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi aniqlandi, shu bilan birga barcha mamlakatlarda inson huquqlari, masalan, harakat erkinligi, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish kabi cheklovlar vaqtinchalik chora sifatida qo‘llanildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasiga hukumat epidemiologik vaziyat, fors-major holatlari yoki boshqa holatlar bilan bog‘liq cheklov choralarini ko‘rganda, bemorlar va tibbiyot xodimlarining huquqlari va majburiyatlarini belgilaydigan va tartibga soluvchi yangi normalar kiritish zarurati isbotlandi. Shu bilan birga, insonni konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash uchun etarli darajada asoslarga ega bo‘lib, choralar vaqtinchalik, haqiqatan ham zarur, asosli va mutanosib bo‘lishi kerak, eng muhimi, inson sha‘ni va qadr – qimmatini, huquq ustuvorligini hurmatiga tayangan bo‘lishi shartligi asoslandi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Xalqaro normalarni implementatsiyasi orqali sog‘liqqa bo‘lgan huquq bo‘yicha milliy qonunchilikni takomillashtirish”** deb nomlangan bo‘lib, telemeditsina sog‘liqni saqlash

tizimining zamonaviy raqamli yechimi sifatida taqdim etilgan tibbiyotni raqamlashtirishda universal xalqaro vositalarning roli o'rganildi. Teletibbiyotda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish huquqi o'rganildi. Favqulodda vaziyatlarda dorivor vositalaridan teng foydalanishni ta'minlashdagi huquqiy asos sifatida dorivor vositalarini majburiy litsenziyalash masalasi har tomonlama tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra sog'liqqa bo'lgan huquqqa oid xalqaro standartlarni implementatsiyasi bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Xalqaro huquqning zamonaviy tendentsiyalariga muvofiq sog'liqni saqlashni samarali raqamlashtirish, uning huquqiy tartibga solinishini ishlab chiqish BMT Barqaror rivojlanish kun tartibi va Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilishi, shuningdek, mavjud va yangi tashkil etilayotgan raqamli sog'liqni saqlash tarmoqlari samaradorligini oshirish va faoliyat doirasini kengaytirishga imkon beradigan zamonaviy xalqaro vosita bo'lgan raqamli sog'liqni saqlash sohasidagi Global strategiyani amalga oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aholi o'rtasida telemeditsina bo'yicha eng dolzarb muammolar va to'siqlar masalasi bo'yicha o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijasida O'zbekistonda telemeditsinani rivojlanishiga xalaqit beradigan asosiy to'siqlar aniqlandi. Kompleks tahlil natijasida aniqlangan to'siqlarni bartaraf etishni hisobga olgan holda, aniq huquqiy, tashkiliy, ilmiy-texnikaviy va moddiy teletibbiyotni rivojlantirishning samarali milliy mexanizmi bo'lib xizmat qiladigan raqamli sog'liqni saqlash sohasidagi Global strategiyani amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturini ishlab chiqish va qabul qilish taklif qilindi.

Raqamli sog'liqni saqlash zamonaviy tibbiyot huquqning muhim dinamik rivojlanayotgan institutlaridan biri sifatida ajratilib, yanada huquqiy tartibga solinishini takomillashtirilishi kerakligi aniqlandi. Telemeditsinani rivojlantirish va uni O'zbekistonda qo'llash AQSh, Yaponiya, Shveytsariya va boshqalarning ilg'or tajribalariga tayanib, sog'liqqa bo'lgan huquq va uning asosiy tamoyillarini yanada samarali ta'minlashga yordam beradi. Shunga asoslanib, uni amalga oshirish mexanizmi taklif etiladi.

Shunga ko'ra, sog'liqqa bo'lgan huquqning eng muhim jihatlaridan biri – elektron sog'liqni saqlashni tartibga soluvchi tegishli me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va birinchi navbatda, zamonaviy yondashuvlar, mexanizmlar va boy terminologik apparatni o'z ichiga olgan “Telemeditsina to'g'risida”gi qonun loyihasi, bu erda telemeditsina texnologiyalari tibbiy xizmatlarning yoki tibbiy yordamning yangi turi sifatida emas, balki shifokor va bemorning o'zaro munosabatlarini sifatli va samarali tashkil etuvchi texnologik-huquqiy platforma sifatida qabul qilinishi kerakligi asoslandi.

Sog'liqqa bo'lgan huquqni tartibga soluvchi bir qator xalqaro standartlar va boshqa manbalarni tahlil qilish asosida barcha insonlar uchun asosiy dorivor vositalarining teng mavjudligi sog'liqqa bo'lgan huquqning ajralmas qismi sifatida keng tan olinishi va davlatlarning minimal asosiy majburiyatlari qatoriga kirishi aniqlandi va shuning uchun ushbu huquqning buzilishiga yoki mavjud resurslarning etishmasligi tufayli davlatlar tomonidan amalga oshirilmaslikga yo'l qo'yimaslik kerakligi asoslandi.

“Dorivor vositalarini majburiy litsenziyalash” tushunchasi va mexanizmini joriy etish Covid-19 pandemiyasi sharoitida butun dunyo bo‘ylab, shu jumladan mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimida katta qiyinchiliklar keltirib chiqarayotgan zarur dorivor vositalari taqchilligi va narxlarining keskin o‘shishini muammosini oldini olishga xizmat qilishi isbotlandi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkiloti (JST) a‘zo bo‘lishga harakat qilayotgan davrida “Dorivor vositalarini majburiy litsenziyalash”ni joriy etish ushbu tashkilotga a‘zo bo‘lish talablaridan birini bajarishga xizmat qiladi. Chunki bir qator shartnomalar a‘zo davlatlarning dorivor vositalarini majburiy litsenziyalash huquqini qonun hujjatlariga kiritishni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mahalliy kompaniyaga patent egasining roziligisiz patentlangan dorivor vositasini ishlab chiqarish yoki texnologik jarayonni takomillashtirish imkonini beruvchi davlat chorasi sifatida “dorivor vositalarini majburiy litsenziyalash” ning mualliflik ta‘rifi taklif qilindi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt 1995-yilda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinganligini hisobga olib, sog‘liqqa bo‘lgan huquq konsepsiyasini Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasiga kiritish, ushbu konsepsiyani inson huquqlari, tibbiyot huquqi hamda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida yanada rivojlantirish davlatimizning xalqaro majburiyatlarini samarali amalga oshirishning namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasi tanqidiy ko‘rib chiqildi va muhokama qilindi, shuningdek, sog‘liqni saqlash huquqi normalarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik tahlil qilindi va takomillashtirishni talab qiladigan bo‘shliqlar va kamchiliklar aniqlandi.

Tadqiqot natijasida “sog‘liqqa bo‘lgan huquq”, “sog‘liqni saqlashning determinantlari”, “global sog‘liqni saqlash”, “epidemiya”, “pandemiya”, “fors-major holatlari”, “aholining o‘zini izolyatsiya qilish rejimi”, “yuqori ogohlantirish rejimi”, “favqulodda vaziyat” va boshqalar kabi tushunchalarning mualliflik ta‘riflari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlarning tasnifi taklif etilgan, shuningdek ularni Kodeks loyihasiga va boshqa milliy qonunlarga kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan (1-ilova va xulosalarga qarang).

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashning xalqaro-huquqiy asoslari bo'yicha olib borilgan fundamental tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy va nazariy xulosalar:

1.1. Kompleksli xalqaro-huquqiy tizimli tahlil asosida inson huquqlarining zamonaviy xalqaro huquqning mustaqil toifasi (kategoriyasi), sog'liqqa bo'lgan huquq – xalqaro huquqidagi inson huquqlarining tizimida mustaqil zamonaviy kategoriya sifatida belgilandi.

1.2. O'tkazilgan fundamental tadqiqotlar va har tomonlama tahlil asosida sog'liqqa bo'lgan huquqning huquqiy tabiati, predmeti, ob'ekti va sub'ektlari, mazmuni va mohiyati aniqlandi, shu bilan birga sog'liqqa bo'lgan huquq alohida xalqaro-huquqiy kategoriyasi va insonni ajralmas ijtimoiy huquqi sifatida belgilanib, ajralmas xarakterga egaligi va boshqa huquqlarga nisbatan eng kam cheklolarga duchor bo'lishi isbotlandi.

1.3. Tizimli va dialektik usul asosida sog'liqqa bo'lgan huquqning xalqaro va milliy-huquqiy tizimdagi o'rni aniqlandi. Sog'liqqa bo'lgan huquq huquqiy tabiati va uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, u milliy va xalqaro miqyosda tibbiyot huquq sohasini shakllantirish bilan bevosita bog'liqligi va uning kontseptual asosi ekanligi aniqlandi. Shu qatorda, sog'liqqa bo'lgan huquq xalqaro tibbiyot huquqning kontseptual asosi bo'lib xizmat qiladigan va shu bilan birga murakkab (kompleksli) huquqiy tartibga solinish xususiyatiga ega ekanligi asoslandi.

1.4. Sog'liqqa bo'lgan huquqni tartibga soluvchi xalqaro hujjatlarni tahlil qilish natijasida sog'liqqa bo'lgan huquq nafaqat tartibga solishning murakkab (kompleksli) tabiati, balki uning uch o'lchovli tabiati bilan ham ifodalanganligi aniqlandi:

1). aholi salomatligini belgilovchi determinantlar – sog'lom turmush tarzini olib borishga yordam beradigan keng ko'lamli omillar;

2). sog'liqqa bo'lgan huquqni himoya qiluvchi inson erkinliklari;

3). xalqaro va milliy tibbiyot huquqi normalari bilan tartibga solinadigan muayyan huquqlardan foydalanish imkoniyati.

1.5. Xalqaro hujjatlarni tizimli va qiyosiy huquqiy o'rganish natijasida, shuningdek, sog'liqqa bo'lgan huquqning huquqiy tabiati asosida sog'liqqa bo'lgan huquq tamoyillari ishlab chiqilgan. Tibbiyot sohasida favqulodda vaziyatlarda harakat qilishning huquqiy norma va prinsiplari takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Muammoga asoslanib, **adolat** va **mutanosiblik** printsiplarini qo'llashning kontseptual asoslari ilmiy asoslangan va ishlab chiqilgan.

1.6. Ijtimoiy-huquqiy hodisalarni bilishning dialektik usuli asosida huquqni o'rganish natijasida ilk bora sog'liqqa bo'lgan huquq somatik inson huquqlari toifasiga kirishi to'g'risidagi ilmiy kontsepsiya ilgari surildi va shu asosda mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: **“sog'liqqa bo'lgan huquq – insonning somatik**

huquqlarini anglatadi va insonning asosiy ajralmas huquqi bo‘lib, u davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardan teng foydalanish huquqi va erkinliklarini o‘z ichiga oladi, bu har bir inson uchun mavjudlik, maqbullik, tenglik va adolat kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular birgalikda insonlarning eng yuqori salomatlik darajasini ta‘minlaydi”.

1.7. Tadqiqotning tarixiy va dialektik usuli natijasida sog‘liqqa bo‘lgan huquqning rivojlanishi 5 bosqichga davriylashtirildi (3-ilovaga muvofiq).

1.8. Kompleksli tahlil natijasida sog‘liqqa bo‘lgan huquq sohasidagi xalqaro huquqiy shartnomalarni ishtirokchilar doirasi va tartibga solish predmeti bo‘yicha tasniflash amalga oshirildi (2-ilovaga muvofiq).

1.9. Xalqaro tashkilotlar tomonidan sog‘liqqa bo‘lgan huquq normalarining talqinini fundamental tahlil qilish va o‘rganish orqali uning huquqiy mohiyatini xalqaro huquqdagi inson huquqlarida sog‘liqqa bo‘lgan huquq ham individual (shu jumladan, bemorlarning huquqlari) va jamoat (global) sog‘liqni saqlashni targ‘ib qilish va bo‘shliqlarni bartaraf etish vositasi ekanligini aniqlashga imkon berdi. Sog‘liqqa bo‘lgan huquq inson huquqlari konsepsiya va doktrinalarni, xalqaro shartnomalar va boshqa xalqaro manbalarni, shu bilan birga, inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchilikni o‘z ichiga oladi. Shu borada, sog‘liqqa bo‘lgan huquq tizimli buzilishlarni aniqlash orqali salomatlikni mustahkamlash va himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

1.10. Mamlakatda maxsus vaziyat (fors-major, epidemiya, pandemiya va boshqalar) paydo bo‘lishi munosabati bilan hukumat tomonidan cheklov choralari – insonning muayyan konstitutsiyaviy huquqlaridan voz kechish haqiqatan ham zarur, muammoga mutanosib va vaqtinchalik, eng muhimi – inson hayoti va qadr-qimmatini hurmat qilishga asoslangan bo‘lishi kerakligi asoslangan. Bir qator ajralmas inson salomatligiga oid huquq va erkinliklarga nisbatan cheklov choralari joriy etishga yo‘l qo‘yish mumkin emasligi isbotlangan (yashash huquqi; bemor bilan kelishilmagan davolanish va muolajalardan ozod bo‘lish huquqi va boshqalar).

1.11. Tadqiqot natijasida sog‘liqqa bo‘lgan huquqini ta‘minlashda universal xalqaro tashkilotlarning funktsiyalari namoyon bo‘lishining to‘qqizta yo‘nalishi aniqlandi va tizimlashtirildi.

1.12. Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, xalqaro sud va kvazi-sud organlari tomonidan sog‘liqqa bolgan huquq bo‘yicha xalqaro huquqiy normalarni xalqaro huquqiy talqini boshqa har qanday talqinlardan ustunlikka ega, shuningdek, ushbu talqinlar sog‘liqqa bolgan huquq boyicha xalqaro standartlarni ishlab chiqishga qaratilgan ikkilamchi qoshimcha huquq manbalari sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

1.13. Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari tomonidan individual xabarlarini ko‘rib chiqish amaliyotini o‘rganish natijasida, sog‘liqqa bo‘lgan huquqni buzilishi to‘g‘risidagi individual xabarlar nafaqat Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning 12-moddasi buzilganligi to‘g‘risida, balki inson huquqlari bo‘yicha boshqa xalqaro shartnomalar bilan ham bog‘liqligi aniqlangan.

Ushbu shartnomalarning buzilishi natijasida sog'liqqa bo'lgan huquqning buzilishiga olib keladi (qiynoqlar, mahbuslarni (shu jumladan bemorlarni) noo'ring'ayriinsoniy sharoitlarda saqlash, dorivor vositalaridan teng foydalanish huquqining buzilishi, tibbiy xizmatlardan teng foydalanish bo'yicha kamsitish, harbiy asirlar bilan tibbiy tajribalar o'tkazish, reproduktiv huquqlarning buzilishi va boshqalar), bu esa yana bir bor sog'liqqa bo'lgan huquqning murakkab va ajralmas xususiyatini isbotlaydi.

1.14. Inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy tizimlar amaliyotini tahlil qilish natijasida quyidagilar aniqlandi,

birinchidan, mintaqaviy tizimlarning inson huquqlari bo'yicha samaradorligining asosiy sababi shundaki, ular qit'aning siyosiy, iqtisodiy va etnik xususiyatlariga, shuningdek, ushbu xalqlarning huquqlari va erkinliklarining o'ziga xos kontseptsiyasini tavsiflovchi va shakllantiradigan mintaqaning tarixiy an'analari va qadriyatlariga asoslanadi, shunga qarab, shikoyatlar, inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmlar tomonidan ko'rib chiqilgan kontitentning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi;

ikkinchidan, inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy tizimlar faoliyat ko'rsatadigan asosiy xalqaro shartnomalarda sog'liqqa bo'lgan huquq bo'yicha aniq normalar mavjud bo'lmasa-da, mintaqaviy sud organlari sog'liqqa bo'lgan huquqning muhim jihatlarini qamrab olgan asosiy huquqlar bo'lgan ba'zi normalarni buzish bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqadilar. Shunga ko'ra, sog'liqqa bo'lgan huquq sohasidagi inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy sudlarning qarorlari mintaqaviy xarakterdagi xalqaro manbalar sifatida muhim ahamiyatga ega va uni qo'llash va tushunishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi va sog'liqqa bo'lgan huquqning muhim manbai hisoblanadi.

1.15. Sog'liqqa bo'lgan huquq va bemor huquqlarining o'zaro bog'liqligi va muvozanati aniqlandi, bu erda sog'liqqa bo'lgan huquqning maqsad va vazifalari global xarakterga ega bo'lib, bemorlarning huquqlari esa individualdir va normalari shaxsga qaratilgandir, sog'liqqa bo'lgan huquqning asosiy sub'ektlaridan biri esa aholidir. Shunga ko'ra, agar sog'liqqa bo'lgan huquq xalqaro va milliy tibbiyot huquqining bog'lovchi bo'g'ini va kontseptual asosi bo'lsa, bemorlarning huquqlari tibbiyot huquqining asosiy institutidir.

1.16. Xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan bemorlarning asosiy huquqlari beshta yo'nalish bo'yicha tasniflandi: tibbiy yordamning mavjudligi va sifati; ma'lumot olish huquqi; bemorning ixtiyoriy roziligi; bemorning javobgarligi; tibbiyot xodimlarining javobgarligi.

1.17. Ikkinchi jahon urushi natijasida tashkil etilgan Nyurnberg jarayoni bemorlarning huquqlari kontseptsiyasining rivojlanishiga asos solganligi va xalqaro miqyosda tibbiyot xodimlarining faoliyatini huquqiy va axloqiy tartibga solishni rivojlantirishga turtki bo'lganligi aniqlandi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, shifokor majburiyatlari va bioetik me'yorlarni aks ettiruvchi bemor huquqlari kontseptsiyasining xalqaro-huquqiy asosini tashkil etgan birinchi xalqaro hujjat 1947 yildagi Nyurnberg kodeksi ekanligi aniqlandi, shundan so'ng bemor huquqlari

va bioetika tushunchasi faol rivojlana boshladi, shu nuqtai nazardan bemorlarning huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar qabul qilindi.

1.18. Dunyoda bemor huquqlarini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasining to'rt turi aniqlandi:

birinchisi, kodifikatsiya qilingan tibbiy huquq, uning doirasida bemorlarning huquqlarini o'z ichiga olgan sog'liqni saqlash kodeksi qabul qilingan (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasida kodeks loyihasi ishlab chiqilgan va ko'rib chiqilmoqda);

ikkinchisi, bemorlarning huquqlari bo'yicha maxsus qonunlar yoki qonun loyihalarini qabul qilish (Gretsiya, Islandiya, Isroil, Litva, Finlyandiya, AQSh);

uchinchisi, bemorlarning huquqlarini milliy qonunchiligining turli qonunlarida aks ettirish (Portugaliya, Sloveniya, Vengriya, Italiya, MDHning aksariyat mamlakatlari);

to'rtinchisi, parlamentar bo'lmagan, odatda yuqoridagi strategiyalar bilan birgalikda qoshimcha manba sifatida qo'llaniladigan strategiya usulidir, bular qatoriga tibbiy uyushmalar tomonidan ishlab chiqilgan bemorlar huquqlari to'g'risidagi Nizom va kasbiy axloq kodekslariga ega bo'lgan mamlakatlar kiradi (Chexiya, Slovakiya, Frantsiya, Irlandiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Gollandiya, Isroil, Litva, Islandiya, Vengriya, Daniya, Norvegiya, Gruziya, Frantsiya, Belgiya, Estoniya, Shveysariya, Kipr)).

1.19. Agar bemorning huquqlari fuqarolarning tibbiy yordam yoki xizmat ko'rsatishga murojaatida yuzaga keladigan huquqiy va ijtimoiy munosabatlar majmuini o'z ichiga olsa, sog'liqqa bo'lgan huquq esa – bu insonning davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardan teng foydalanish huquqiga ega bo'lgan asosiy ajralmas ko'p spektrli kompleks inson huquqidir, bu har bir kishiga mavjudlik, maqbullik, tenglik va adolat kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan eng yuqori salomatlik darajasiga ega bo'lishiga imkon beradi, bu nafaqat o'z vaqtida va tegishli tibbiy yordamni, balki asosiy sog'liqni saqlash holatini va ma'lum erkinliklarni belgilovchi omillarligi aniqlaydi.

1.20. Aholining ijtimoiy so'rovi natijasida aniqlangan to'siqlarni bartaraf etishni hisobga olgan holda, telemeditsinani huquqiy, tashkiliy, ilmiy-texnikaviy va moddiy yo'nalishda rivojlantirishning samarali milliy mexanizmini ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Telemeditsina texnologiyalari nafaqat tibbiyot xizmatlarining yangi turi yoki tibbiy yordamning yangi ko'rinishi sifatida emas, balki shifokor va bemorning o'zaro ta'sirining yangi kontseptsiyasi, ya'ni texnologiyalarni birlashtirgan platforma sifatida ko'rib chiqilishi kerakligi asoslandi.

1.21. Sog'liqqa bo'lgan huquqini tartibga soluvchi bir qator xalqaro standartlar va boshqa manbalarni tahlil qilish asosida asosiy dori vositalarining barcha uchun teng mavjudligi sog'liqqa bo'lgan huquqning ajralmas qismi sifatida keng tan olinishi va davlatlarning minimal asosiy majburiyatlari qatoriga kirishi aniqlandi va shuning uchun ushbu huquqning bekor qilinishiga yoki mavjud resurslarning etishmasligi tufayli davlatlar tomonidan buzilishiga yo'l qo'ymaslik kerakligi isbotlandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolikka harakat qilayotgan davrda dorivor vositalarini majburiy

litsenziyalash mexanizmini joriy etish ham tashkilotga a'zo bo'lish talablaridan birini bajarishga xizmat qiladi.

II. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan taklif va tavsiyalar:

2.1. Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasi tanqidiy ko'rib chiqildi va muhokama qilindi, shuningdek, sog'liqqa bo'lgan huquq normalarini tartibga soluvchi milliy qonunchilik tahlil qilindi va takomillashtirishni talab qiladigan bo'shliqlar va kamchiliklar aniqlandi.

Shunga ko'ra, kodeksi loyihasiga ushbu "**sog'liqqa bo'lgan huquq**" atamasini quyidagi tahrirda kiritish taklif qilingan:

sog'liqqa bo'lgan huquq – bu har bir inson uchun mavjudlik, maqbullik, tenglik va adolatlilik kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan, sog'liqning eng yuqori darajasiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlarga teng kirish uchun insonning fundamental ajralmas huquqidir.

Sog'liqqa bo'lgan huquq keng tarmoqli huquq bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- salomatlikni eng yuqori darajasiga ega bo'lish uchun har bir inson uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan huquq;
- kasalliklarning oldini olish, davolash va nazorat qilish huquqi;
- eng asosiy dorivor vositalarga bo'lgan huquq;
- ona, bola va reproduktiv sog'liqqa bo'lgan huquq;
- asosiy tibbiy xizmatlardan teng va o'z vaqtida foydalanishga bo'lgan huquq;
- sog'liqni saqlash bilan bog'liq ma'lumotlar bilan ta'minlanish huquqi;
- aholining milliy va mahalliy darajadagi sog'liqni saqlash tadbirlarida ishtirok etishi.

Sog'liqqa bo'lgan huquq nafaqat o'z vaqtida va tegishli tibbiy xizmatlarga, balki sog'liqni saqlash holatini belgilovchi asosiy **omillarni** ham o'z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- xavfsiz oziq-ovqat, yetarli ovqatlanish va uy-joy sharoitlarini yetarli darajada ta'minlash;
- xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish va tegishli sanitariya sharoitlari;
- xavfsiz mehnat sharoitlari va sog'lom muhit;
- sog'liqni saqlash bo'yicha ta'lim va ma'lumotlarga, shu jumladan jinsiy va reproduktiv salomatlik bo'yicha.

Sog'liqqa bo'lgan huquqqa ma'lum **erkinliklar** ham kiradi:

tibbiy tajribalar va tadqiqotlar yoki majburiy sterilizatsiya kabi muvofiqlashtirilmagan tibbiy davolanishdan, shuningdek qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazodan ozod bo'lish.

2.2. Kodeksning 4-moddasiga xalqaro shartnomalarda aks ettirilgan va sog'liqni saqlash sohasidagi zamonaviy tahdidlar va haqiqatlarni aks ettiruvchi bir qator boshqa yangi atamalarni kiritish taklif qilindi. Bu bizning huquqiy bazamizni

sifat jihatidan yaxshilashga imkon beradi va ushbu sohada yanada samarali tartibga solish va normalarni amalga oshirishga yordam beradi:

“sog‘liqqa bo‘lgan huquq”, “bemor”, “sog‘liqni saqlashning determinantlari”, “global sog‘liqni saqlash”, “epidemiya”, “pandemiya”, “fors-major holatlari”, “aholining o‘zini izolyatsiya qilish rejimi”, “yuqori ogohlantirish rejimi”, “favqulodda vaziyat” va boshqalar kabi tushunchalarning mualliflik ta‘riflari ishlab chiqildi (1-ilova va xulosalarga qarang).

2.3. Mamlakatda biron favqulodda vaziyat yuzaga kelgan taqdirda dorivor vositalari bilan bog‘liq gumanitar muammo yuzaga kelgan taqdirda davlat monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan fuqarolarni himoya qilish vositasini qo‘llash mexanizmini – “Dorivor vositalarni majburiy litsenziyalash”ni qo‘llashi mumkin. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasiga “**Dorivor vositalarni majburiy litsenziyalash**” tushunchasini kiritish taklif etiladi (1-ilovaga qarang):

“Dorivor vositalarni majburiy litsenziyalash – bu mahalliy kompaniyaga patentlangan dorivor mahsulotni ishlab chiqarish yoki asl patent egasining roziligisiz texnologik jarayonni ko‘paytirish imkonini beruvchi davlat chorasidir. Majburiy litsenziyalash – bu patent egalari kompensatsiya evaziga o‘z huquqlaridan foydalanish uchun litsenziyani topshirishga majbur bo‘lgan chora bo‘lib, uning miqdori ushbu mamlakatda amaldagi qonun yoki arbitraj mexanizmi bilan belgilanadi. Dorivor vositalarni majburiy litsenziyalash faqat mamlakatda favqulodda vaziyat yoki o‘ta zarurat tug‘ilganda qo‘llanilishi mumkin”.

2.4. “Telemeditsina to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi taklif qilindi va asoslandi. “Telemeditsina to‘g‘risida” gi qonun loyihasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasini ishlab chiqishda, yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda, tibbiyotda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qoidalar bilan to‘ldirilishi kerak. Shunga ko‘ra, 02.07.2019 yildagi “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida” gi O‘RQ-547-son O‘zbekiston Respublikasining Qonunini tibbiyotda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi alohida qoidalarni to‘ldirishi kerak.

2.5. Ushbu kodeksga mamlakatda favqulodda vaziyat yoki biron maxsus vaziyat yuzaga kelishi munosabati bilan qabul qilingan cheklovchi choralar to‘g‘risidagi normativ-huquqiy normalarni kiritish maqsadga muvofiqligi, ya‘ni pandemiya, epidemiya, fors-major holatlari va boshqa holatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq maxsus normalarni nazarda tutuvchi vaqtinchalik choralar ko‘rilganda, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi aniq qoidalar va mezonlarni joriy etish zaruriyati mavjudligi asoslandi.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasiga hukumat epidemiologik vaziyat, fors-major holatlari yoki boshqa turdagi holatlar bilan bog‘liq vaqtinchalik cheklovchi choralarni ko‘rganda fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan va tartibga soluvchi yangi modda kiritish taklif qilindi (1-ilovaga qarang).

2.7. O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasining 5-moddasiga tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan sog‘liqqa bo‘lgan huquqning asosiy tamoyillari kiritish taklifi asoslandi (1-ilovaga qarang).

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Aholi sog‘lig‘ini saqlash kodeksi loyihasining 88-moddasiga tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan muallifning nashridagi “Bemorning majburiyatlari” tushunchasini kiritish taklif qilindi (1-ilovaga qarang): “Bemorning vazifalaridan biri sifatida tibbiyot mutaxassislariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishdan tashqari, mamlakatda maxsus vaziyat (epidemiya, pandemiya, fors-major holatlari) yuzaga kelishi munosabati bilan vaqtincha cheklovchi choralarni joriy etish davridagi majburiyatlar” to‘g‘risidagi normani joriy etish taklif etiladi.

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-fevraldagi 96-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2-qismining B-bandini “Barcha turdagi respirator viruslar, infeksiyalar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklar ro‘yxatiga kiritish” to‘g‘risidagi taklif asoslangan.

Sog‘liqqa bo‘lgan huquq sohasida xalqaro-huquqiy standartlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar BMTning Inson huquqlari Kengashi tomonidan 2023-yil 3-aprelda qabul qilingan “Ruhiy salomatlik va inson huquqlari” A/HRC/RES/52/12 rezolyutsiyasini ishlab chiqishda qo‘llanilgan va ilmiy asoslangan:

2.9. Sog‘liqqa bo‘lgan huquqning asosiy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik determinantlarini ta‘minlashda tengsizlik va diskriminatsiyadan kelib chiqadigan, insonni sog‘liqqa bo‘lgan huquqlarining barcha jihatlarida to‘liq amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiladigan bir qator tarkibiy muammolarni yaxlit asosda engib o‘tish uchun davlat dasturlari doirasida davlatlarning javobgarligi va e‘tiborini kuchaytirish.

2.10. Pandemiya davrida (COVID-19 va boshqalar) va boshqa favqulodda vaziyatlarda cheklovchi choralar ko‘rilganda davlatlarning o‘z majburiyatlarini samarali bajarishi, davlatlar xalqaro huquq doirasidagi xalqaro majburiyatlariga muvofiq inson huquqlari, insonning haqqoniy ma‘lumot olish huquqini cheklamasdan, internetga ma‘lumot manbai va davlat xizmatlaridan, shu jumladan sog‘liqni saqlash va telemeditsina xizmatlaridan foydalanish vositasi sifatida kirishni sifatli ta‘minlaydi.

2.11. Raqamli savodxonlikni ta‘minlash va raqamli tafovutlarni bartaraf etish zarurligiga alohida e‘tibor qaratgan holda, sog‘liqqa bo‘lgan huquq va boshqa davlat xizmatlari sohasida arzon va inklyuziv ta‘limni global miqyosda ta‘minlashga ko‘maklashish vositalaridan biri sifatida onlayn internetga kirishni rag‘batlantirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni davom ettirish va mustahkamlash.

2.12. Global sog‘liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ulardan foydalanish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy baza va qonunchilikni ishlab chiqishda davlatlar tomonidan inson huquqlari va huquq ustuvorligi sohasidagi majburiyatlariga rioya qilish.

III. Amaliy ahamiyatga ega takliflar:

3.1. Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro-huquqiy asoslardan kelib chiqqan holda salomatlik huquqi bo'yicha yagona universal xalqaro – huquqiy bitimni – **Sog'liqqa bo'lgan huquq bo'yicha xalqaro konvensiyani** qabul qilish zarurligi isbotlandi (*Sog'liqqa bo'lgan huquq bo'yicha xalqaro konvensiyaning loyihasi JSSTga ko'rib chiqishga yuborilgan*).

3.2. Bemor huquqlari konsepsiyasi va bioetikaga asoslangan holda, shuningdek JSST, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va strategiyalarini, davlatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga, 12-moddasida aks ettirilgan sog'liqqa bo'lgan huquqning ustuvorligini inobatga olib, ayrim inson huquqlarini cheklash qoidalarini aniq belgilagan Qo'shimcha fakultativ protokolni ishlab chiqish va qabul qilish zarurati asoslantirilgan.

3.3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomaviy organlari faoliyati amaliyotini tahlil qilish natijasida xalqaro huquqda inson huquqlarining sog'liqqa bo'lgan huquq normalari manbalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan talqin materiallarining amaliy ahamiyati aniqlandi. Shunga ko'ra, davlatlarning milliy qonunchiligini xalqaro me'yorlar va standartlar bilan yanada uyg'unlashtirish, shuningdek xalqaro majburiyatlarni samarali bajarish maqsadida BMTning shartnomaviy organlarining milliy sudlar va qonun chiqaruvchi organlar tomonidan umumiy sharhlari, yakuniy mulohazalari, tavsiyalari va talqinlari kabi muhim xalqaro manbalarga murojaat qilishning ahamiyati asoslangan.

3.4. BMTning jahon sog'liqni saqlash sohasidagi sog'liqqa bo'lgan huquq soxasida xalqaro siyosatni shakllantiruvchi asosiy universal mexanizmi sifatida faoliyati fokusi pandemiyalar davrlardagi asosiy inson huquqlarini ta'minlashga to'siqlik qiladigan muammolar, jumladan, malakali tibbiyot va dori-darmonlardan teng foydalanish imkoniyati yo'qligi, telemeditsinani rivojlantirish, shaxsiy sog'liqni saqlash tizimini himoya qilish, bemorlarning ma'lumotlari xavfsizligi va boshqa sohalardagi tizimli muammolarni bartaraf etishga global konsolidatsiya va yagona strategiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak degan xulosa qilingan.

3.5. Bugungi kunda xalqaro majburiyatlarni bajarish mexanizmini takomillashtirish, boshqa mamlakatlarning ilg'or amaliyotini davom ettirish zarurligi sababli, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarni milliy huquq tizimiga to'g'ridan-to'g'ri inkorporatsiya qilish amaliyotini qonuniy ravishda joriy etish taklifi asoslantirilgan. Xalqaro imperativ normalar va talqinlarga, xususan, sog'liqqa bo'lgan huquq sohasidagi xalqaro shartnomalarni implementatsiya jarayonida normalar inkorporatsiyasini to'g'ridan-to'g'ri retsepsiya qilish mexanizmi nafaqat xalqaro va milliy huquqning progressiv rivojlanishiga, shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro majburiyatlarning samarali bajarilishiga yordam beradi. Faqatgina transformatsion implementatsiya mexanizmi bilan cheklangan milliy huquqiy amaliyotda ma'lum darajada to'g'ri me'yorlarni qo'llashda to'siqlar paydo bo'lishi taxmin qilingan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/03.06.2023. Yu.22.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА НАУК 12.00.10. ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА

**МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА
НА ЗДОРОВЬЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

12.00.10 – Международное право

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени
доктора юридических наук (Doctor of Science)**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2022.2.DSc/Yu210

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском(резюме)) на веб-странице Научного совета и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Умарханова Дилдора Шарипхановна
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тиллабоев Мирзатилла Алишерович
доктор юридических наук, профессор

Нугманов Нугман Абдуллаевич
доктор юридических наук, профессор

Иркин Мирзахидович Умарохунов
доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

Центр повышения квалификации юристов при Министерстве Юстиции Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «31» мая 2024 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.07/03.06.2023. Yu.22.04 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100077, г. Ташкент., ул. Сайилгох, 35).

Тел.: Тел: +998 71 233-66-36, Факс: +998 71 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz.

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована под № _____), (Адрес: Республика Узбекистан, 100047. г. Ташкент, ул. Сайилгох, 35.

Автореферат диссертации разослан «15» мая 2024 года.
(протокол реестра № 6 от «15» мая 2024 года).

С.С. Гулямов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор юридических наук, профессор

Д.Н. Махкамов
Секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор юридических наук, доцент

Ш.Х. Файзиев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор юридических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В процессе мировой глобализации право на здоровье стало одним из основных неотъемлемых социальных прав человека, закрепленных в ряде международных документов, в первую очередь в Уставе ВОЗ, Международном пакте по экономическим, социальным и культурным правам, а также в Целях устойчивого развития ООН. Необходимо отметить, что согласно статистике, в 2021 году дети (в возрасте 0-14 лет) составляли 4% всех людей, живущих с ВИЧ/СПИДом, что составляет 15% всех смертей, связанных с этим заболеванием. Снижение числа смертей от туберкулеза с 2015 по 2021 год составило всего 5,9 процента. Пандемия COVID-19 вызвала еще 14,9 миллиона избыточных смертей и привела к 336,8 миллионам смертей во всем мире в 2020 и 2021 годах⁵. Эти факты доказали всему мировому сообществу несовершенство не только систем здравоохранения в мире, но и указали на глубокие правовые пробелы и проблемы, которые требуют своего скорейшего решения, что свидетельствует о необходимости углубленного изучения категории права здоровье и ее институционализации в международном праве прав человека.

В мире ведутся научные дискуссии, касательно развития и становления права на здоровье, которое признано всеми международными организациями по правам человека, а также является предметом регулирования международных договоров. При этом, фокус внимания большинства ученых направлен на такие вопросы, как выявление особенностей норм права на здоровье, институционализация, кодификация, изучение правовой природы и особенностей развития международно-правовых основ права на здоровье с учетом современных тенденций глобального здравоохранения, в условиях современных вызовов и угроз. Возникающие новые проблемы требуют своего правового регулирования, что указывает на актуальность совершенствования нормативной базы путем имплементации международных норм в области права на здоровье.

В Республике Узбекистан в последние годы эффективно проводится комплексное реформирование системы здравоохранения, направленное на приведение в соответствие международными стандартами. С высокой трибуны ООН Президент заявил, что «Мы приняли решение в несколько раз увеличить обеспеченность населения питьевой водой, а также охват здравоохранением, образованием и другими социальными услугами»⁶. Соответственно, актуальным является развитие и институционализация права на здоровье, включающим в себя широчайший спектр прав, одними из которых являются права пациентов. Это обусловлено тем, что обеспечение верховенства права, приведение законодательства в области здравоохранения в соответствие с международными стандартами, совершенствование

⁵ World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals. © World Health Organization 2023. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240074323>

⁶ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций. 20.09.2023. <https://president.uz/ru/lists/view/6677>

функционирования систем здравоохранения, изучение и применение на практике норм, связанных с медицинским правом, а также правовое регулирование использования новых биомедицинских методов лечения с участием человека являются приоритетными при изучении данной области права.

Настоящее диссертационное исследование послужит реализации Указов Президента Республики Узбекистан № УП–60 от 28.01.2022 г. «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы», № УП–158 от 11.09.2023 г. «О Стратегии «Узбекистан – 2030», № УП–6221 от 05.05.2021 г. «О последовательном продолжении осуществляемых в системе здравоохранения реформ и создании необходимых условий для повышения потенциала медицинских работников», № УП–5590 от 07.12.2018 «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан», на основании которого была утверждена Концепция развития системы здравоохранения Республики Узбекистан на 2019 – 2025 годы, Постановления Президента Республики Узбекистан, № ПП–140 от 01.05.2023 г. «О дополнительных мерах по цифровизации системы здравоохранения», а также совершенствованию законодательства в данном направлении.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴.

Научно-исследовательские работы по определенным аспектам права на здоровье осуществляются в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в частности, в The Centre of Medical Law and Ethics – King’s College London (Великобритания), University of Oxford, Faculty of law (Великобритания), University of Aberdeen (Шотландия), Harvard University (США), The Harvard School of Public Health (США), Charles University (Чехия), Victoria University of Wellington (Новая Зеландия), The Cambridge Centre for Law Department of International Law of National university of «Kyiv-Mohyla academy» (Украина), Российский университет дружбы народов (Россия), Первый Московский государственный медицинский университет имени И. М. Сеченова (Россия), Кыргызская Государственная Юридическая Академия (Кыргызская Республика) и др.

Разработаны предложения по таким вопросам, как совершенствование международно-правовой базы в области здравоохранения (The Centre of

⁴ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации выполнен на основе www.heuni.fi, www.tilburguniversity.edu, www.uu.nl, www.mpicc.de, www.law.ox.ac.uk, sydney.edu.au, www.isisc.org, www.mdx.ac.uk, law.depaul.edu, iso.bnu.edu.cn, www.ubc.ca, www.unn.ru, www.usla.ru, www.mgimo.ru, msal.ru, www.agprf.org, www.dipacademy.ru, vipe.fsin.su, www.uwed.uz и других источников.

